



BO‘LAJAK MUSIQA O‘QITUVCHILARINING BADIY IJOD VOSITASIDA QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK ZARURATI

Saddinov Alisher Atadjanovich

Urganch davlat universiteti

mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining badiiy ijod qobiliyatini rivojlantirishning pedagogik zarurati, shart-sharoit va mexanizmlari tahlili keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: ijod, badiiy, musiqa, o‘qituvchi, tayyorgarlik, rivojlantirish, bakalavriat, san‘at.

Annotation: This article presents an analysis of the pedagogical necessity, conditions and mechanisms of developing the artistic creativity of future music teachers.

Key words: creativity, artistic, music, teacher, preparation, development, undergraduate, art.

Аннотация: В данной статье представлен анализ педагогической необходимости, условий и механизмов развития художественного творчества будущих учителей музыки.

Ключевые слова: творчество, художественное, музыка, педагог, подготовка, развитие, бакалавриат, искусство.

Bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining badiiy-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning pedagogik aspekti sifatida shuni alohida ta’kidlash joizki, har qanday ilmiy tadqiqot fan tomonidan ko‘rib chiqilayotgan bilim sohasida nima to‘planganligini, pedagogik ta’lim jarayon qanday yo‘llarni bosib o‘tganligini, rivojlanishining qaysi bosqichlarini o‘z boshidan kechirganligi va bu jarayonga xos tendensiyalar tushuniladi.

Bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining badiiy-ijodiy qobiliyatining mazmuni, uning tuzilishi, shakllanish jarayonlari, yo‘llari va vositalari, badiiy ijodning integrativ bosqichlari, boshqa ijod bilan bog‘liq tushunchalar bilan aloqalari, o‘zaro bog‘liqligi, o‘xshashligi, farqli jihatlari, musiqiy-ijrochilik faoliyati xususiyatlari tavsifi haqida to‘xtalib o‘tish lozimdir.

Bunday jarayonda bo‘lajak musiqa o‘qituvchisining musiqa ta’limi bakalavrit ta’lim yo‘nalishi talabasi sifatida o‘zlashtirayotgan bilimlarining eng xilma-xil sohalaridan izlash kerak. Chunki, ijodiy qobiliyatlar muammosi, kengroq aytganda, ijodkorlik barcha davrlar mutafakkirlari e’tiborini tortgan [2]. Ushbu fenomenga bo‘lgan chuqur qiziqishni bugungi kunda mavjud bo‘lgan kitoblar va boshqa ma’lumotlarni ko‘pligi bilan baholash mumkin.

Asosiy qism. Badiiy faoliyat sohasida bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining ijodiy qobiliyatlari haqidagi ilmiy tasavurlarning qanday yuzaga kelganini tushunish uchun birinchi navbatda, talabaning ijodiy iste’dodi bilan bog‘liq asosiy yo‘nalishlarni va asosiy masalalar doirasini belgilab bergan pedagogik mazmuni tavsifiga murojaat qilamiz.



Bo'lajak musiqa o'qituvchilarining san'at sohasidagi ijodiy qobiliyatlari va boshqa turdagi faoliyat iste'dodi o'rtasidagi farqni qadimgi yunonistonda aynan yunonlar payqashgan. Ular san'atni hunarmandchilik va ilm-fan bilan bir qatorda insonning ijtimoiy foydali natijaga erishishga qaratilgan aqliy faoliyati shakllaridan biri sifatida qabul qilganlar.

Yunonlar san'atdagi asosiy rolni umuman bo'lajak musiqa o'qituvchilari shaxsiyati yoki uning dunyoqarashi yoki mafkurasi uchun emas, his-tuyg'ulari yoki irodasi uchun emas, uning ijodga iktidori va namoyon qilish qobiliyati uchun emas, balki, ularning eng avvalo tafakkuri uchun e'tirof etganlar. Darhaqiqat qadimgi yunonni o'rab turgan voqelik moddiyati edi: bu vokelikka munosabat faqat ishlab chiqarish edi. Tabiiyki, bunday sharoitda tafakkur va tafakkurni maxsulot ishlab chiqarishdagi amaliy qobiliyati oldingi o'rinlarga ko'tarildi [6].

Biroq, san'at sohasidagi ijodiy qobiliyatlarni va fan yoki hunarmandchilik bilan shug'ullanadigan kishining amaliy intellekti o'rtasidagi farqni to'g'ridan-to'g'ri aniqlashga ikki turdagi kuzatishlar to'sqinlik qilardi. Birinchidan, qadimgi yunonlarning tasavvuriga ko'ra, san'at asari qandaydir o'ziga xos holat, ichki ma'naviy bosim bilan, xususiyatlariga ko'ra "aqlidan ozishga o'xshash" bir davrda, ya'ni musiqa bastakorining aqlidan ozishi bilan bog'liq holda yuzaga keladi. Endi bu "aqlidan ozish" musiqa asari ijrochisiga o'tishi kerak, u ham ushbu asarni aqlidan ozgan kishi sifatida ijro etishi kerak. Shu zayl ushbu asarni tinglovchilari ham ushbu asarni eshitgandan so'ng aqlidan ozishi kerak va eng muhimi ushbu o'rgatuvchi o'qituvchilar ham aqlidan ozgan holda shogirdlariga o'rgatishlari kerak. Shu zayl ushbu musiqa asarining ta'sir etuvchi kuchi birdek saqlanib qoladi va u adabiy yashaydi degan aqida bilan yashaganlar. Biroq, bunday aqlidan ozdiruvchi asarlar soni kam holda dunyoga kelishini ta'kidlab o'tganlar. Ushbu jarayon fikrlash, bilish va amaliy faoliyat jarayonlari to'g'risida to'plangan bilim va umumiy farazlarni ziddiyatli holatlarga kelishiga sabab bo'lar edi [5].

Bularning barchasi bo'lajak musiqa o'qituvchilarining tafakkur va bilish qonuniyatlari haqidagi o'sha davrdagi mavjud g'oyalar doirasiga to'g'ri kelmaganligi sababli badiiy va ijodiy qobiliyatlar tabiati haqida turli mulohazalarni ilgari surish uchun asos bo'lib xizmat qilgan. Sitseronning aytishicha, Demokrit badiiy iste'dodning o'ziga xos xususiyatlari haqida "Hech kim aqlidan ozmasdan buyuk shoir bo'la olmaydi" degan fikrni aytgan. Bu yerda Sitseron Demokrit va Platonning qarashlarini birlashtiradi, ularning har ikkisi ham shunday karashda deb xisoblaydi [5].

Aristotel san'at nazariyasining keyingi rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan ixcham nazariyani yaratdi. Bu nazariyaning asosiy g'oyalari qisman Aristoteldan oldin ham ifodalangan, biroq u ularga fundamental xarakter bergan. Aristotel ilhom (yoki vasvasa) muammosiga alohida qiziqish ko'rsatmaydi, u bu haqda yengil, sezdirmasdan she'riyatda fakat iqtidorli yoki vasvasa musiqa ijrochilarigina muvaffaqiyatga erishish mumkin deb yozadi. Aristotel ko'proq ijodkorlikning yo'nalishi va funksional ma'nosi bilan qiziqadi. Aristotelning fikricha, haqiqatda ideal yo'q; ideal – Platonning o'zgartirilgan "g'oyalari" – bu eng yaxshi g'oya va idealga taqlid yuksak san'atni keltirib chiqaradi. Shunday qilib,





san'at Aristotel uchun shaxsni idealga yakinlashtirish, uni oddiy va kundalik hayotdan yuqoriga chiqarish, uni tasodifiy va yuzaki tomonlarini "tozalash", uni yuksaklik va mukammallikka ko'tarish vositasiga aylanadi.

Ma'naviy faoliyat shakllari ierarxiyasini qurgan Aristotel asosiy mezon jamiyat ehtiyoji va hayotiy tajribani umumlashtirish o'lchovi deb biladi. U shunday yozadi: "...Tajribaga ega kishi hissiy idrokli musiqa bastkoridan donoroq, san'atni egallagan kishi tajribali musiqa ijrochilaridan donoroq, o'qituvchi – ustoz esa hunarmanddan donoroq, nazariy fan ijod san'atidan yuqorida deb hisoblanadi" [5].

Aristotelning fikriga ko'ra badiiy ijod – ustoz, chunki u asosan tarbiya vazifasini bajaradi, ijodkor badiiy ijod bilan u yoki bu idealni targ'ib qilib vatandoshlarini tarbiyalaydi.

Ushbu postulatlariga asoslanib, Aristotel san'atni falsafadan bir pog'ona pastga, lekin hunarmandchilikdan va tarixdan tepaga qo'yadi. Umuman evolyusiya aklni san'at manbai va o'lchovi deb hisoblagan dastlabki nazarini o'zgartirib, san'at ustunligini tan olish yo'nalishiga o'tdi.

Bunday qarash hali Aflotunga begona edi, lekin Aristotelga biroz yaqin edi. Aristotel iste'dod tug'ma xususiyat deb hisoblagan, biron vazifani muvaffaqiyatli bajarish uchun tabiiy qobiliyat zarur. Iste'dodsiz ijod qilib bo'lmaydi. Aristotelning mashhur so'zlari: metrlarni qo'shishni o'rgatish mumkin, ammo metafora tuzishni o'rgata olmaysiz – aytilgan. Biroq, Arastuning fikriga ko'ra, iste'dodning o'zi to'liq muvaffaqiyatni ta'minlamaydi: tabiiy qobiliyatlarni rivojlantirish va sayqallash kerak degan g'oyani ilgari suradi [2]. Shunday qilib, antik davrda badiiy ijod bilan bog'liq muammolarning asosiy doirasi aniqlanib, shaxsning badiiy-ijodiy qobiliyatlarning tabiati va mohiyati masalasi ko'rib chiqila boshlandi.

Aristotel badiiy ijodning individual o'ziga xosligi, uni hayotni umumlashtirish shakli sifatidagi imkoniyatlari nuqtai nazaridan talqin qildi. U asosiy urguni falsafa va san'at o'rtasidagi farqlarga, bastakorning bilim manbalari, san'atning ijtimoiy funksiyasi, uning tomoshabinlarga hissiy ta'sir ko'rsatish qobiliyati, vatandoshlarning ijtimoiy ongini shakllantirish masalasiga qaratdi.

Platon kutargan muammolarni neoplatonizmni rivojlantirib g'oyalar olami bilan real olam o'rtasidagi dualizm haqidagi falsafasini yanada mustaxkamladi. Plotinning fikricha, sodir bo'ladigan hamma narsaning mohiyati ibtidodan kelib chiqadi, uning birinchi mahsuli tafakkur – borliqning eng oliy darajasidir.

Tafakkur – borliqning eng oliy darajasi o'zidan ongli olamga tegishli ruhni chiqaradi, u uz navbatida Plotin tabiat deb nomlagan ikkinchi ruxni chiqaradi. Materiya esa nafakat tamoyilning eng past mahsuli va eng quyi bosqichi, balki yerda mavjud narsalarning xilma-xilligi va nomukammalligining sababi, yovuzlik tamoyilidir. Platonning fikriga ko'ra, musiqa ijrochilari hayotining ma'nosi – barcha moddiy narsalardan voz kechish, ruhni tozalash (katarsis) va ilohiy bilan birlashishdir. Bunga erishishning asosiy vositasi – g'oyalarni o'z ichiga olgan san'atdir. Go'zallik orqali hayotning mohiyatini, g'oyalar





olamini anglash mumkin. Platon musiqa shaxsning ma'naviyatiga, axloqiy salohiyatiga ta'sir qilishning noyob imkoniyatlariga ega deb xisoblab unga alohida e'tibor karatgan [6].

Keyinchalik badiiy-ijodiy iste'dod muammosi jahon faylasuflarining asarlarida paydo bo'ldi. Buyuk fransuz pedagogi D.Didro materialistik falsafa nuqtai nazaridan san'atning ma'nosi va badiiy iste'dodning tabiatini ko'rib chiqib, u haqiqat, go'zallik ideal boqiy dunyoda, voqelikdan tashqarida mavjud emas, balki voqelikning aksi sifatida, uni kuzatish va o'rganish natijasida mavjud deb hisoblagan. Go'zallik ideali xuddi haqiqat kabi, oldindan belgilab qo'yilgan narsa emas, unga amaliyot, harakat orqali erishiladi, namoyon kilinadi. Bastakorning go'zallikni ideal qiyofasi haqida tasavvuri "u tug'ilgan joyning iqlimi, davlat boshqaruvi, qonunlari va xalqning u tug'ilgunga qadar shakllangan va uning fikrlariga oldindan ta'sir qiladigan xukmga ko'ra shakllanadi.

Kuzatishlar, amaliyotlar, taqqoslashlar musiqa ijrochisining didini – hodisalarga tez baho berish, haqiqatni, yaxshilikni anglash, go'zallikka singish qobiliyatini rivojlantiradi [1]. Bo'lajak musiqa o'qituvchilari ijodiy ish jarayonida tajribasi ortib rivojlanadi, tajriba ijodkorni sayqallangan didiga mos tasvirlar bilan ta'minlaydi. "Iste'dod tabiatga taqlid qiladi; did ishora beradi" [2]. Ijodkor ob'ektiv voqelikda aniq modelga ega emasligi, ijodiy jarayon esa ijodkorning didi, xissiy darajasi, qiziqishlariga qarab individual ravishda yuzaga kelishi sababli, D.Didro ajdodlar merosini va zamonaviy ijod maxsullarini chuqur o'rganish orqali shaxsni shakllantirish bo'yicha tegishli ta'lim zarur deb xisoblaydi. Didro o'quvchiga ehtiyotkorlik bilan yo'nalish ko'rsatish, dunyoqarashlarini ifodalash, o'zini topishga yordam berish o'rniga, ularga o'z uslubini tiqishtirib, qadimiy namunalardan nusxa ko'chirishga majburlab, ularni sindirayotgan murabbiylarga bir necha bor tushuntirishlar olib borgan. Bunday o'qitish natijasida – ijodkor o'rniga hayotdan bexabar va ahamiyatsiz narsalarga qiziqadigan o'rtamiyona taqlidchi dunyoga keladi.

Shularni tahlili qilish borabari bugungi o'zbek musiqa ijodida ham bir qator "zamonaviy muammolar" milliy musiqa san'atida iqtidorli yoshlarni yuzaga chiqishi va ko'p yillik ijod qilib, tajriba ortirishiga sezilarli darajada salbiy to'sqinlik qilmoqda. Bu bugungi kunning "fonogrammadan foydalanish muammosi"dir. Uning salbiy oqibatlari natijasida sog'lom ovoz ijrochilari soni keskin kamayib ketmoqda.

Badiiy iste'dodning tabiati va mohiyati haqidagi qarashlarning davomi va rivojini Kantning sub'ektiv idealistik falsafasida ko'rish mumkin. Agar Platon badiiy ijod paytidagi ijodkorda aqldan ozishga o'xshash xolatni ko'rgan bo'lsa, Kant "me'yordan chetga chiqish"ni boshqa yo'nalishda izohlaydi: uning nazarida badiiy-ijodiy iste'dod sohibi dunyoni o'ta kuchli xissiyot orqali ko'rish noyob qobiliyatiga ega. "Daho bu – san'at uchun qoida yaratuvchi talantdir, tabiiy iste'doddur" – deb yozadi Kant. Ijodkorning talanti tug'ma qobiliyatdir, biroq, uning o'zi ham tabiatga tegishli, daho qalb orqali tabiat san'atga qoidalar beradi [4]. Platonda ijodkorni Apollon boshqargan bo'lsa, Kantda tabiat o'z qoidalarini beradi.

Kantning shak-shubhasiz xizmati shundaki, u birinchi bo'lib urg'uni ijodkorning tabiiy in'omining o'ziga xos xususiyatlariga qaratdi va ijodkorning to'g'ri va chuqur



fikrlash qobiliyati masalasiga yangi nuqtai nazardan qaradi. Biroq, u bundan nariga o'tmadi. U o'zining anglash haqidagi umumiy qarashlariga to'liq mos ravishda ta'kidlaydi: "Dahoning asari taqlid qilish, ergashish uchun namuna bo'la olmaydi, aks holda asarda daxoning ruxi yo'qoladi, dahoni asarini daho maktabda olgan darsiga emas, dahoni o'ziga hisoblash kerak, dahoning asari faqat boshqa daho qabul qilishi uchun kerak. Boshqacha qilib aytganda, san'atkorning dahosi dunyoni chinakam hukm qilishga qodir bo'lsa, uning ijodiy salohiyatini yuzaga keltiruvchi, tafakkurini mazmunli belgilab beruvchi in'om tabiiy bo'lsa, tabiat va aql o'rtasidagi mavjud qarama-qarshiliklar musiqa ijodiyotining iste'dodi dahosi va dahoning aqli bo'lishdan mahrum aql o'rtasidagi karama-karshilikka aylanadi.

Badiiy-ijodiy tafakkurni narsa va hodisalarning mohiyatiga kirib borish usuli sifatida ajratib ko'rsatgan holda, Kant aql bilan dunyoni anglash orasidagi aloqa va musiqa qandaydir Iloh tomonidan tabiatga bog'likligini oshkor etilganini ochib beradi. Kant badiiy-ijodiy tafakkurni ilmiy va falsafiy tafakkurdan yuqoriga ko'taradi, lekin shu bilan birga uni fandan ajratib qo'yadi. Ushbu tahlillar natijasida bo'lajak musiqa o'qituvchilarining badiiy-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish ijodiy faoliyatning markaziy muammosi sifatida diskursiv (oqilona, mantiqiy, bilvosita) bilim va intuitiv bilim (bevosita, mantiqiy dalillarsiz yigilgan) o'rtasidagi o'zaro ta'sir muammosini qo'rish mumkin. Bunda yuqorida tilga olingan daholikni asosiy qobiliyatlari tasavvur va o'ziga xos fikrlash layoqatidir, degan xulosani asoslab berishga urinidik. Ya'ni, agar ijodkorda mahsuldor tasavvur bo'lmasa, u san'at bilan shug'ullana olmaydi. Biroq, san'at asarini faqat tasavvur kuchi bilan yaratish ham mumkin emas, chunki fikrlashning faolligi, ta'lim, mahorat va tarbiya ham zarur.

Aynan shu diskursiv tamoyil musiqa ijrochisini ("daho"), ("qobiliyat")ga yaqinlashtiradi, garchi ushbu jarayonlar shubhasiz, badiiy va ilmiy faoliyatda umumiylikni emas, balki xususiylikni ta'kidlashga moyildir. Shoir eng avvalo o'z tasavvuriga, musiq ijrochisi o'zining ijro imkoniyati, qobiliyatiga tayanishi kerak bo'lsa, olim mantiqqa, aqlga tayanishi kerak [6].

Shunday qilib, uni "ideal" deb atash mumkin bo'lgan ijod jarayonini anglab, ilg'ab bo'lmaydigan, insonni o'zi bilmagan qobiliyatlari ishga tushib, misli kutilmagan natijalarni keltirib chiqarishi mumkinligi ta'kidlab o'tiladi. Barcha qobiliyatlarning tabiiy asoslari haqida Kant gapirganda, u materiyaga moyillik bildirgan. Bo'lajak musiqa o'qituvchilarining badiiy-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning pedagogik aspektlari tahlili badiiy faoliyatda tasavvur va aqlning gnoseologik "o'zaro ta'siri" ning ulkan ahamiyatini qayd etganda dialektik, ilmiy va badiiy tafakkurni yuzaga keltiradi.

Shunday qilib, bo'lajak musiqa o'qituvchilari ongini to'xtatib turuvchi tashqi cheklovlarni yo'q qilib, uni musiqa ta'limi bakalavriat ta'lim yo'nalishi talabalari ongiga, ruhtyatiga aylantiradi, bunda bo'lajak musiqa o'qituvchilarining aqliy qobiliyatlari vositasida o'zini anglashi, o'zini o'zi bilishi yuz beradi.

Bu holatda bo'lajak musiqa o'qituvchilari ongining vazifasi umumiylik xususiyatlarini qayta tiklash, go'yo ularning asoslarini individual hodisalardan ozod qilishdir, ya'ni ularni tushunchalarga aylantirishdir. Musiqiy, kuy-ohang tushunchasi va





hissiy tajriba o'rtasidagi ziddiyatlarni hal qilish orqali xususiy va umumiydan universalga o'tishning birinchi harakatini bajaradi.

Dunyo, olam, atrof-muhit, jamiyatni chuqur his etish uchun abstrakt qonun va noyob o'ziga xos-mafkuraviy siyosat, xolat va voqea-hodisalar, odamlar, irqiy, diniy, millat, shuningdek, talaba-yoshlar o'rtasidagi qarama-qarshilikni yumshatish uchun san'at, xususan musiqa juda zarurdir. Bunda, san'at – ruhiy va xissiyoti kuchli bo'lajak musiqa o'qituvchilari o'rtasidagi qarama-qarshilik sifatida tilga olinsa, musiqa kasbiy mahorat va pedagogik kompetensiyalar o'rtasidagi kurash sifatida yuzaga chiqadi. Bularning barchasi provard natijada bo'lajak o'qituvchida burch uchun milliy g'urur, iftixor; qat'iy tartiblar uchun mayin, kuychan ohang, kuy-qo'shiqdar, jo'shqin tuyg'ular, alohida manfaatlar, xissiy moyilliklar; jamiyatdagi ichki erkinlik bilan tashqi erkinlik uchun tabiiy zarurat o'rtasidagi qattiq qarama-qarshilik sifatida; g'oyaviy bo'sh tushuncha bilan to'laonli hayot o'rtasidagi kurash sifatida; nazariya, sub'ektiv fikr va ob'ektiv borliq, ob'ektiv tajriba o'rtasidagi ziddiyat sifatida namoyon bo'lmoqda.

Kantning yuqoridagi fikrlarini davom ettirgan holda shuni a'lohida ta'kidlash kerakki, ruhiy faoliyat shakllari ierarxiasini terib chikib, musiqa bastakorining eksklyuzivligi bilan ijrochining falsafiy ijro tuyg'usini va musiqa pedagogi olimining yuqoriga ko'tarilgan daho darajasiga g'oyalarini taqqoslasa, nazarimizda bu ierarxiya negizida "badiiy ijod" turadi. Bu yerda oraliq xalqa – din, uning cho'qqisi esa falsafa hisoblanadi. Bu borada Gegelning fikriga tayansak, "aynan falsafada san'at" va "dinda erishilgan natijalar" birlashadi, shuningdek, ular o'zaro birlashib, yagona "badiiy ijod mazmuni"ni tashkil qiladi. Buning provard natijasi tashqi jo'shqinlik xususiyati yo'qolib o'rnini ob'ektivlikni oliy shakli hisoblangan "tafakkur" egallaydi, tafakkurga singigan san'atning ob'ektivligi birlashadi" [4].

Tadqiqot jarayonida ko'pgina ilmiy tadqiqot ishlarini o'rganish barobarida bo'lajak musiqa o'qituvchilarining badiiy ijod qobiliyatlarini rivojlantirishning metodik birligi sifatida "erkin fikrlash" bu – egallangan bilimlarning orttirilgan eng sof shakli sifatida ta'kidlasak, badiiy-ijodiy bu – tafakkurni esa, falsafaning ob'ektiv-hissiy darajaning yuqori bosqichi deb qarash mumkin. Albatta, badiiy fikrning shakli bu – san'at, musiqa, she'r, hissiy to'qima, o'ziga xos ifodalovchi tasvirga aylanadi. Badiiy-ijod obraz shaklining o'zi badiiy-musiqiy asarni san'at darajasiga ko'taradi. Hissiy kuy-ohanglarda badiiy obraz masalasini shakllantirish qobiliyati bo'lajak musiqa o'qituvchilarining "iste'dod" belgisidir. Aynan o'zining badiiy obrazlilikiga erishgandan so'ng, u o'zining eng muvofiq taqdimot usulini topganida "yuksak san'at" kamolotiga erishadi.

Albatta, badiiy ijod xususida juda ko'plab, asosli mulohazali fikrlarni keltirib o'tishimiz mumkin. Biroq, pedagoglar nazdidan qaraganga badiiy ijodga xos bo'lgan fikrlash darajasiko'p yillik pedagogik tajriba natijalariga tayanadi. Agar g'arb klassikasga murojaat qiladigan bo'lsak, Gegelga ato qilingan "tug'ma quloq", Betxovenga berilgan "konseptual tafakkur", Sharqda esa, Farobiy berilgan "dunyo tillarini o'zlashtirish iste'dodi", Ibn Sinoga berilgan "tabobat sohibi ilmi", Amir Temur bobomizga berilgan



jahongirlik sultoni”, Navoiyga berilgan g‘zal mulki sultoni”, Komiljon Otaniyozovga berilgan dovudiy ovoz ularning intellektual tamoyili esa emotsional hissiyotiga, xarakatiga, musiqiy mavzularning qarama-qarshiligiga o‘z kuchini o‘tkaza olgan.

Amaliyotda orttirilgan hissiy tajriba tom ma’noga ega, xususan, musiqa san’ati amaliy faoliyatsiz hech narsaga erishmaydi va hech narsani ko‘rsatib bera olmaydi. Badiiy ijod uchun amaliy faoliyat birlamchi bo‘lib, bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining barcha qobiliyatlari kristallanadigan va yagona markazga aylanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1.Panjiyev Q.B. Musiqa o‘qitish metodikasi. Darslik. Toshkent. 2023. 306 b.
- 2.Panjiyev Q.B. O‘zbek xalq qo‘shiqlari vositasida bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish. Monografiya. 2022, 202 b.
- 3.Ibrohimjonova G.A., Yuldoshev U.Yu. Musiqa nazariyasi. Darslik. Toshkent. 2017
- 4.Abdullin E.B. Teoriya i praktika muzqkalnogo obuchenie v obsheobrazovatelnoy shkole. M. 1983.
- 5.Ibrohimov O.A. “O‘zbek xalq musiqa ijodi” (metodik tavsiyalar 1-qism), Toshkent. 1994-y. B. 62.
- 6.Karabaev U. Etnokultura (Traditsionnaya narodnaya kultura): Ucheb. Posobie Toshkent, Sharq. 2005. St. - 240.